

BIR BO'G'INLI TURKIY SO'ZLAR ETIMOLOGIYASI (“Devoni lug‘otit turk” asari misolida)

Mamilova Sabina Isoqovna,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

sabinaisoqovna@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada sof turkiy bir bo‘g‘inli so‘zlarning etimologiyasi haqida qisqacha bayon qilingan. G‘.Abdurahmonov va S.Mutallibovning “Devoni lug‘ati-at turk” indeks-lug‘ati va Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” kitoblaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar. Sof turkiy so‘zlar, lug‘at, etimologiya “art”so‘zi, “berk” so‘zi, “burch” so‘zi, “yanch” so‘zi, “ko‘rk”so‘zi, “kavsh” so‘zi, “ilk” so‘zi.

TEK HECELI TÜRK KELIMELERININ ETIMOLOJISI (“Divoni Lug‘otit Turk” adli eserden esinlenilmiştir)

Mamilova Sabina Isokovna,

Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi

Özet. Bu makalede saf Türkçe tek heceli sözcüklerin etimolojisi kısaca anlatılmaktadır. G. Abdurakhmonov ve S. Mutallibov’un “Devoni lug‘ati-at turk” adlı dizin sözlüğü ve Ş. Rahmatullayev kullanıldı.

Anahtar kelimeler. Saf Türkçe sözcükler, sözlük, etimoloji, “sanat” sözcüğü, “berk” sözcüğü, “burç” sözcüğü, “yanch” sözcüğü, “ko‘rk” sözcüğü, “kavş” sözcüğü, “ilk” sözcüğü.

ЭТИМОЛОГИЯ ОДНОСЛОЖНЫХ ТЮРКСКИХ СЛОВ (По мотивам произведения “Девони лугати-ат турк”)

Мамилова Сабина Исоковна,

студентка Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье кратко описывается этимология чисто тюркских односложных слов. Словарь-указатель “Девони лугати-ат турк” Г.Абдурахмонова и С.Муталибова и книги “Этимологический словарь узбекского языка” Ш.Рахматуллаева.

Ключевые слова. чисто тюркские слова, словарь, этимология, слово «арт», слово «берк», слово «бурч», слово «янч», слово «күрк», слово «кави», слово «илк».

ETYMOLOGY OF MONOSYLLABIC TURKISH WORDS (on the example of the work “Devoni lug‘otit turk”)

Mamilova Sabina Isokovna,

student of Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. This article briefly describes the etymology of purely Turkic monosyllabic words. The index-dictionary of G.Abdurakhmonov and S.Mutallibov “Devoni lug‘ati-at turk” and the books “Etymological dictionary of the Uzbek language” by Sh.Rahmatullayev were used.

Keywords. Pure Turkic words, dictionary, etymology, the word “art”, the word “berk”, the word “burch”, the word “yanch”, the word “ko‘rk”, the word “kavsh”, the word “ilk”.

Etimologiya – tilshunoslik fanining muhim va murakkab sohasi. Etimologiya so‘zi asl yunoncha “etymon” va “logos” so‘zlaridan tarkib topgan; etimon so‘zi “chin, asl mohiyat” ma’nosini logos so‘zi esa “ta’lim” ma’nosini anglatadi. Shunga ko‘ra etimologiya sohasida

soʻzlarning asl shakli va maʼnosini aniqlash boʻyicha izlanishlar olib boriladi. Sof turkiy bir boʻgʻinli soʻzlar etimologik kelib chiqishini quyidagi leksemalarda koʻrib chiqamiz:

Art – “mato bilan ishqab xoli qil” – degan maʼnoda keladi. Masalan:

Stol ustini hoʻl latta bilan arting. Bu soʻz qadimgi turkiy tildagi **“poklan”** maʼnosini anglatgan **ar** – feʼlidan **-t** ortirma nisbat qoʻshimchasi bilan hosil qilingan; keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan; oʻzbek tilida “a” unlisi ä unlisiga almashgan: **ar+t=art>ärt.** Bu feʼl dastlab “pok qil” maʼnosini bildirgan, **“xoli qil”** maʼnosi keyin oʻsib chiqqan [1,32].

Masalan: *Soʻtag-ey! joʻjaxoʻroz-ey! Qoʻyib bersa, meni soʻroq qilmoqchi! Meni-ya! Jangovar Qizil Bayroq ordenlari kavaleri, kimsan Komissarni-ya! Avval burniningni artib ol, mishiqli!* [2,45] Ushbu matn tarkibida qoʻllanilgan **“art”** soʻzi feʼl turkumini ifodalagan va ushbu oʻrinda shakldoshlik yuzaga kelgan.

Gʻ.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar tomonidan nashr etilgan “Devoni lugʻati at-turk” indeks-lugʻatida ham **“art”** soʻzining boshqa bir nechta maʼnolari keltirilgan:

a) **art** - *togʻ tepasi, dovon - vershina, gʻor, pereval;*

b) **art** - *orqa, boʻyin, art – sach - orqa soch, gardom mui* [3,23].

Hozirgi kunda ishlatilish darajasi faol:

Berk – mustahkam yopilgan. M: *Bu uyning darvozasi hamisha berk.*

Bu sifat turkumiga oid birlik qadimgi turkiy tildagi **“mustahkam boʻl”** maʼnosini anglatgan **be** – feʼlining **-r** ortirma qoʻshimchasi bilan hosil qilingan shakliga **-(i)k** qoʻshimchasini qoʻshib yasalgan; keyinroq ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan: **(be+r=ber)+ik=berik>berk.**

Mahmud Koshgʻariy **“Asli bek, r harfi ortiqcha”**, - deydi, vaholanki bek va berk soʻzlarining tarkibi keskin farq qiladi.[1,46] M: *Azizxon kun boʻyi yer parchin boʻlib yotadi. U oʻzini boshi berk koʻchaga kirib qolgandek sezardi.* [4,43] Bu soʻz Gʻ.Abdurahmonov va S.Mutallibov **“Devoni lugʻat at-turk”** indeks-lugʻatida oʻz maʼnosida yaʼni **“berk, mustahkam”** maʼnosida kelgan [3,32] ushbu soʻzning fonetik tarkibi ham eʼtiborga molik, qator undosh kelgan soʻzlar, asosan, fors-tojik tiliga xos xususiyat hisoblanadi.

Burch – ikki narsa tomonining kesishgan joyi. Hovlining ichkari chap burchiga oshxona qurilgan. Bu ot **“aylantir”**, **“eg”** semalariga ega. Bur – feʼlidan **-u(ch)** qoʻshimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan: **bur+uch=buruch>burch.** [3,71]

M: – *Qoʻyvor! Qoʻyvor ayamni! Ayvon burchagida qoʻnishib turgan qizaloq quyundek uchib kelib, Fotimaning yelkasidan quchoqlab oldi* [2,67]. Ushbu holatda ham soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlaridan biri shakldoshlik munosabati yuzaga kelyapti. Bu jarayon tilning leksik sathiga xos, lekin uzoq davr mobaynida shakllanadi.

Koʻrk – husn, chiroy. M: *Togʻlarning betkay tomonlarida endi gullagan jiydalar bogʻlarning koʻrkiga koʻrk qoʻshardi.* Bu ot qadimgi turkiy tilda **“qara”**, **“nazari tush”** maʼnosini anglatuvchi **kör** – feʼliga **-oʻ(k)** qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan, keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan. Oʻzbek tilida **ö** unlisining yumshoqlik belgisi yoʻqolgan: **kör+oʻk = köroʻk > körk > kork.** [1, 230] Bu ot dastlab **“koʻrinish”** maʼnosini anglatgan boʻlib, **“husn”** maʼnosi shu maʼno asosida yuzaga kelgan.

M: *Ne desangiz, har ikki tomonning ish boshigʻa intilgan kishilarning koʻkragiga qoʻl solib koʻrsangiz, birisining faqat el talamoq, boyliq orttirmoqqagʻina boʻlgan gʻarazini, ikkinchisining koʻrkli xotinlar, yuqori turmushlar uchun boʻlgʻan maqsadinigʻina koʻrib, ikki orada “elni tinchitay”, el ham rohat-tirikchilik qilsin. degan uchinchi bir oliy maqsadini charogʻ yoqib axtarsangiz ham topolmassiz.* [5, 236]

Koʻrk – sinonim soʻz boʻlgani uchun hozirgi kunda uning maʼnodoshlari ham ishlatiladi. Masalan: *Bahor yangligʻ ochildi, Gullar kabi sochildi, Chiroyidan ovoza, Elga tarqaldi toza.*[6,21]

Yanch – ezigʻila, maydala, kukunga aylantir, donni qobigʻidan ajrat.

M: *Ilonni quyrug'idan emas, boshidan yanchadilar.* (Maqol). Bu so'z qadimgi turkiy tildagi "yoy", "soch" – ma'nosini anglatgan **yan** – fe'liga kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -ch qo'shimchasini hosil qilingan, keyinchalik ikkinchi bo'g'inidagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan; o'zbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan: **yan+ch=yanch>yanch>yänch**. So'zlashuv nutqqa bu so'z yench tarzida ham talaffuz qilinadi. [1,138]

Ilk – oldingi, dastlabki, boshlang'ich. M: *Quyoshning ilk nurlar hovlining shu tarafiga tushadi.* Qadimgi turkiy tildagi "old" ma'nosini anglatgan **il** otidan -i qo'shimchasi bilan "oldga tomon harakatlan" ma'nosini anglatuvchi **ili** – fe'li yasalgan va unga -k qo'shimchasini qo'shib **ilik** so'zi yasalgan: **ilik** keyinroq ikkinchi bo'g'inidagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan (**il+i=ili**)+**k=ilik>ilk** [1,115] *Ular tashqi olam borligini unda yovuz muhit mavjudligini shu tariqa ilk marotaba tuygan edilar.* (Ch.Aytmatov "Qiyomat" romani)

Kavsh – chaynash degan ma'noni bildiradi. Masalan: *Sigir yotgan joyida kavsh qaytarar edi.* Bu so'z qadimgi turkiy tildagi "chayna" ma'nosini anglatgan **kev** fe'lidan harakat nomi yasovchi -(i)**sh** qo'shimchasi bilan hosil qilingan. Qadimgi turkiy tildayoq bu fe'l tarkibidagi unli ä talaffuz qilingan. (**kev, käv**) +**ish** = **kävish**. O'zbek tili shevalarida bu so'z "kavush" tarzida talaffuz qilinadi, adabiy tilda esa kavsh shaklida yozish rasmiylashtirilgan (ikkinchi bo'g'inidagi tor unli yozilmay qo'ygan). O'zbek tilida bu so'z yakka o'zi ishlatilmaydi. Ya'ni, "kavsh qaytar" birikmasi tarkibida keladi. Undan tashqari G'.Abdurahmonov va S.Mutallibovning "Devoni lug'ati-at turk" indeks-lug'atida ham o'z ma'nosida ya'ni "**kävshän teshäj** – kavshanadigan tuya" ma'nosida ishlatilgan. M: *Oshqozoni shunga moslashgan: kunduzi uni yemishga to'ldirib tuni bilan kavsh qaytarib, yemishni hazm qilib, hatto uyqusida ham jag'i tinmaydi jonivorning.* [7,315] Kavsh so'zining bu ma'nosidan tashqari "qaytarog" fe'li bilan birga, "chaynalmoq" so'zining kesatig ma'nosini ifodalaydi. Masalan: *O'qituvchi darsda saqich chaynab o'tirgan o'quvchiga ogohlantirish sifatida: "Kavsh qaytarmay o'tir",– dedi.*

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, hozirgi o'zbek adabiy tilida faol iste'molda bo'lgan sof turkiy so'zlar o'z denotata ma'nosidan uzoqlashgan. Bu jarayon tilda tabiiy ravishda sodir bo'lishini inobatga olish va kelib chiqish tarixi – etimologiya sohasiga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Rahmatullayev. "O'zbek tilining etimologik lug'ati" – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 32.
2. Hoshimov O'tkir. "Tushda kechgan umrlar"romani. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B.124.
3. G'.Abdurahmonov va S.Mutallibov "Devoni lug'ati at-turk" indeks-lug'ati. –Toshkent: Fan.1967. – B.23.
4. Said Ahmad. Ufq. Roman. – Toshkent, 2008. – B.198.
5. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Roman. "Abadiy barhayot asarlar" turkumi / Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy –T.: "Navro'z", 2019. - 400 b.
5. Olimjon. Semurg' yoki Parizod bilan Bunyod. Dostoni. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – Toshkent. 1999. – B.64.
6. Aytmatov Chingiz. Asrga tatigulik kun. Roman. Rus tilidan Asil Rashidov tarjimas. – Toshkent: "Yoshlar" nashriyot uyi, 2018. – 424 b.
7. Kamol o'g'li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).
8. Муродовна, Р. М. Использование водных объектов при проектировании ландшафтных объектов. *JournalNX*, 125-128.
9. Shokir o'g'li, P. S. (2024). Omonim so 'zlarni o 'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. *Miasto Przyszłości*, 54, 1744-1746.
10. Erbutayeva, S. U. (2021). About some auxiliary words in Uzbek language. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1294-1300.